BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.F.08.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

ASHRAPOV RAVIL RAMZAYEVICH

YOSHLARNING IJTIMOIY-MA'NAVIY QIYOFASINI SHAKLLANTIRISHDA KITOBXONLIK MADANIYATI

09.00.04 - Ijtimoiy falsafa

FALSAFA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

UO‘K: 101.1:316:028.02-053.81(575.1)

Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по философским наукам

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on philosophical sciences

Ashrapov Ravil Ramzayevich
Yoshlarning ijtimoiy-ma’naviy qiyofasini shakllantirishda kitobxonlik madaniyati.....3

Ашрапов Равиль Рамзаевич
Культура книгочтения в формировании социально-духовного облика молодежи 23

Ashrapov Ravil Ramzayevich
The culture of book reading in the formation of the social and spiritual image of youth 45

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ.
List of works published 50

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.F.08.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

ASHRAPOV RAVIL RAMZAYEVICH

YOSHLARNING IJTIMOIY-MA'NAVIY QIYOFASINI SHAKLLANTIRISHDA KITOBXONLIK MADANIYATI

09.00.04 - Ijtimoiy falsafa

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.2.PhD/Fal316 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Navoiy davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Safarova Nigora Olimovna** falsafa fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Salomova Hakima Yusupovna** falsafa fanlari doktori, professor
	Rajabova Natalya Bazarovna falsafa fanlari fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Urganch davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.F.08.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “14” noyabr soat 9⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 200118, Buxoro tumani, Galaosiyo shahri, Ibn Sino ko‘chasi 1-uy (Xalqaro tadqiqotlar markazi), Tel.: (99865) 221-29-14; faks: (99865) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1094- raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65)221-29-14; faks: (0365)221-29-14.)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “31” oktyabr kuni tarqatildi.

(2026-yil “31” oktyabr dagi 39 raqamli reyestr bayonnomasi.)

B.B. Namozov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

A.Z.Sharipov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori, professor

F.D. Muzaffarov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o‘rinbosari,
falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida yosh avlodning ma’naviy-axloqiy kamolotini ta’minlash, ularning madaniy qadriyatlarini asrash va rivojlantirish zamonaviy ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, jamiyatning barqaror taraqqiyoti, demokratik boshqaruv samaradorligi va iqtisodiy yuksalishi yoshlarning ta’lim darajasi, ma’naviyati, axloqiy fazilatlari hamda kitobxonlik madaniyati bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatmoqda. Insoniyatning tarixiy taraqqiyoti davomida yozuv, savodxonlik, mutolaa faoliyati va kitobxon shaxsining o‘zaro munosabatlari asosida shakllangan kitobxonlik madaniyati ijtimoiy tajriba hamda qadriyatlarni avloddan avlodga yetkazuvchi muhim hodisa sifatida qaror topgan. Shuning uchun yoshlarning dunyoqarashi, ma’naviyati va ongini yuksaltirish, ularda milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni mustahkamlashda kitobxonlik madaniyatining determinatsion xususiyatlari hamda jamiyat intellektual salohiyatini oshirishdagi rolini asoslash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Jahon ilm-fanida kitobxonlik madaniyatining yoshlar ongi, xulq-atvori va ma’naviy-axloqiy rivojlanishiga ta’siri, mutolaaning shakllari, axborotni idrok etish usullari va kitobxonning matn bilan munosabatlarini aniqlashga oid tadqiqotlar olib borilmoqda. Yosh avlodning individual xulq-atvorini ijtimoiy voqelikni takomillashtirish yo‘lida o‘zgartirish omili bo‘lgan “inson – jamiyat – tabiat” munosabatlari tizimida kitobxonlik madaniyatining o‘rnini, uning anglash va ijtimoiy tajribani o‘zlashtirish o‘rtasidagi vositachilik xususiyatini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois kitobxonlik madaniyatini yoshlarning kasbiy va intellektual rivojlanishi bilan birga, ularning ijtimoiy-ma’naviy qiyofasi shakllanishiga ta’sir etuvchi xususiyatlarini tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

Yangi O‘zbekistonda inson kapitalini rivojlantirish, kitobga mehri, ilmli, ma’naviy yetuk va mustaqil fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalashga, yoshlarning ilmiy bilimlar, zamonaviy innovatsiyalarni o‘zlashtirishini qo‘llab-quvvatlashga hamda kitobxonlik targ‘ibotiga alohida e’tibor qaratilmoqda. “....ko‘rinadiki, bizning yoshlarimiz intellektual salohiyat bobida hech kimdan qolishmaydi. Bugun umumxalq harakatiga aylangan “Besh muhim tashabbus”ni amalga oshirishda yoshlarimiz faol ishtirok etayotgani bizni cheksiz quvontiradi. Bunda yoshlarni madaniyat va san’atga keng jalb etish, axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta’минlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bugungi zamonda intellektual va ma’naviy yetuk, tashabbuskor yoshlar barqaror taraqqiyotning drayveriga aylanmoqda. O‘zbekiston yoshlari – mamlakatni modernizatsiya qilishga qaratilgan jadal va keng ko‘lamli islohotlarning harakatlantiruvchi kuchi va faol ishtirokchisi sifatida maydonga chiqmoqda”[1]. Bu borada ma’rifat, ta’lim, yoshlar tarbiyasiga oid tashabbuslarni ilgari surish, yoshlarning mutolaa ehtiyojini shakllantirish, kitobxonlik muhitini takomillashtirish yoshlarning ijtimoiy-ma’naviy qiyofasini

[1] Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. – Тошкент: “O‘zbekiston, 2021. – Б.235

shakllantirishda kitobxonlik madaniyatining ta’sir mexanizmlarini ochib berish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi O‘RQ-406-son “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida” qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2026-yil 22-maydagi PF-33-son “Yoshlar orasida kitobxonlik dasturini keng joriy etish va ularning qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida” farmonlari, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2026-yil 15-yanvardagi PQ-9-son “Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va aholi o‘rtasida kitob o‘qishga qiziqishni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrdagi 781-son “2020-2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturi”, 2021-yil 18-yanvardagi 23-son “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2025-yil 10-martdagi 149-son “Oliy ta’lim tashkilotlarida talabalarga grantlarni taqdim etish va qayta taqsimlash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” qarorlari hamda hamda sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘r ganilganlik darajasi. Kitobxonlik madaniyati va inson kamoloti haqidagi falsafiy qarashlar Platon, Suqrot, Arastu va R.Dekartning bilish hamda tafakkurga oid g‘oyalarida, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino va Alisher Navoiyning ilm-ma’rifat hamda ma’naviy-axloqiy kamolot haqidagi mulohazalarida ma’lum ma’noda asoslab berilgan. Zamonaviy xorijiy tadqiqotlarda M.Maklyuen, A.Manguel, A.Kompanyon, R.Shartye, U.Eko, K.Kule, J.Jan, E.Tyorner, S.Eliot va J.Rouzning ishlari kitob tarixi, mutolaa tajribasi hamda matnning ijtimoiy hayotdagi o‘rnini turli jihatlardan ochib beradi[2].

[2] Рассел Б. История западной философии. – М.: Миф, 1993. – С. 350.; Новейший философский словарь. – Минск: Сфера, 1999. – С. 386; Платон. Собрание сочинений: Т.1. – М: Мысль, 1990. – С. 675; Декарт Р. Рассуждение о методе, чтобы верно направлять свой разум и отыскивать истину в науках и другие философские работы / Пер. с лат., – М.: Академический проект, 2011. – С. 335. Абу Наср Фараби. Город добродетельных людей. – Т.: Гафур Гулям, 2001. – С. 162; Абу Райхан Беруни. Избранные произведения, том 1. – М.: Наука, 1968. – С. 486; Ибн Сино. Изб. Филос. Произведения. – М.: Наука, 2011. – С. 478; Алишер Навои. Избранные сочинения в 26 т. Том 3. – Т.: Гафур Гулям, 2010. – С. 511.; Маклюэн М. Галактика Гутенберга. Сотворение человека печатной культуры. – Киев: Ника-Центр, 2004. –С. 432; Мангуэль А. История чтения. – Екатеринбург: У-Фактория, 2008. – С. 342; Компаньон А. Демон теории. Литература и здравый смысл. – М., 2001. – С. 170; Шартье Р. Письменная культура и общество. – М.: Дом интеллектуальной книги, 2006. – С. 270; Эко У. Не надейтесь избавиться от книг. – М.: Симпозиум, 2013. – С. 458; Куле К. СМИ в Древней Греции. – М.: НЛО, 2004. – С. 320; Жан Ж. История письменности и книгопечатания. – М.: Астрель, 2005. – С. 328; Terner E.G. Athenian Books in the Fifth and Fourth Centures B.C. Loundres, 2011. – P. 266; Eliot S., Rose J. A companion to the history of the book”. Blackwell publishing, 2019. – P. 256.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi olimlaridan B.Turayev, S.Tolstov, V.Bartold, N.Lisovskiy, E.Katsprjak, S.Klyashtorniy, A.Kairbekova, A.Yazberdiyev, A.Tagirjonov va B.G‘ofurovning tadqiqotlari yozuv, kitob va madaniy merosning tarixiy asoslarini o‘rganishda ahamiyatlidir. N.Berdyayev, I.Ilyin, V.Solovyov, I.Gobozov, V.Barulin va V.Stepinning madaniyat, shaxs va ijtimoiy hayotga oid qarashlari esa kitobxonlikning inson dunyoqarashi va qadriyatlari bilan aloqadorligini talqin qilishga yordam beradi. S.Plotnikov, M.Kufayev, N.Rubakin va E.Nemirovskiyning asarlarida kitob, kitobxon va mutolaa o‘rtasidagi munosabatlarni tushuntirishga xizmat qiluvchi yondashuvlar aks etgan. Kitobxonlikning zamonaviy shakllari, kitobxon shaxsi va mutolaaningijtimoiylashuv jarayonidagi o‘rniga oid masalalar V.Vasilyev, A.Belovitskaya, E.Melnikova, Yu.Melentyeva, T.Galaktionova, M.Gudova, D.Krupnitskiy va N.Stefanovskayaning ishlarida ham yoritilgan[3].

Mamlakatimiz olimlaridan E.Rtveladze, E.Oxunjonov, N.Safarova, H.Salomova A.Umarov, V.Livshits, A.Abdulazizov, B.Ganiyeva, N.Xabibullayev,

[3] Тураев Б.А. История древнего Востока. – М.:Сиб., 1912; Толстов С.П. Древняя культура Туркестана. – Т. 1927. – С. 234; Бартольд В.В. Сочинения. Т.5. – М.: Высшая школа, 2003. – С. 350: Бартольд В.В. Работы по истории ислама и арабского халифата. – М.: Высшая школа. 2003. – С. 194: Лисовский Н.М. Святые Кирилл и Мефодий. – СПб.: Билиограф, 1885; Кацпржак Е.Н. История письменности и книги. – М.: Искусство, 1955. – С. 468; Бердяев Н.А. Философия творчества, культуры и искусства. – М.: Искусство. Соч в 2-х томах. Том I. 1999. – С. 458; Ильин И.А. Основы христианской культуры. – М., Русская книга, Соч. в 10 томах. Том I. 2002. – С. 340; Соловьев В.С. Сочинения. Т.2. – М., 1989. – С. 422; Гобозов И.А. Социальная философия. – М.: Издатель Савин С.А., 2003. – С. 340; Барулин В.С. Социальная философия. – М.: Фаир - Пресс, 2000. – С. 348; Степин В.С. Человеческое познание и культура. – СПб.: СПбГУП, 2013. – С. 240; Плотников С.Н. Читательская культура в России // Homo Legens. Памяти Сергея Николаевича Плотникова (1929–1995 г.). – М.: Дом интеллектуальной книги, 2011. – С. 280; Куфаев М.Н. Проблемы философии книги // Куфаев М.Н. Избранное. Труды по книговедению и библиографоведению. – М.: Книга, 1981. – С. 356; Рубакин Н.А. Психология читателя и книги. Краткое введение в библиологическую психологию – М.: Лира., 1929. – С. 45; Рубакин, Н.А. Этюды о русской читающей публике. – СПб., 1895. – С. 246; Немировский Е.Л. Большая книга о книге. – М.: Время, 2010. – С.1088; Кляшторный С.Г. Согдийская надпись из Бугута // Вып.10. Средняя и Центральная Азия. – М.: Наука, 1971. –.С. 45. Васильев В.И. Книга – источник культуры: проблемы и методы исследования: материалы междунар. науч. конф. – М.: Наука, 2008. – С. 496; Беловицкая А.А. Общее книговедение. – М.: МГУП, 2007. – С. 10; Мельникова Е.Г. Воображаемая книга. Очерки по истории фольклора о книгах и чтении в России. – СПб.: Изд-во Европейского университета в Санкт-Петербурге, 2011. – С. 275; Мелентьева Ю.П. Общая теория чтения. – М, Наука, 2015. – С. 284; Галактионова Т.Г. Чтение школьников как социально-педагогический феномен открытого образования (теоретико-методические основы исследования). – СПб., 2007. – С. 356; Гудова М.Ю. Чтение в эпоху постграмотности: культурологический анализ // Дисс … док. культурологии. – Екатеринбург, 2015. – С. 268; Крупницкий Д. В. Чтение и роль школьной библиотеки в процессе социализации старшеклассников. – Новосибирск, 2014. – С. 130; Стефановская, Н.А. Читатели о чтении – мир субъективных представлений // Социол. исслед. 2009. – №1. Тураев Б.А. История древнего Востока. – М.:Сиб., 1912; Толстов С.П. Древняя культура Туркестана. – Т. 1927. – С. 234; Бартольд В.В. Сочинения. Т.5. – М.: Высшая школа, 2003. – С. 350: Бартольд В.В. Работы по истории ислама и арабского халифата. – М.: Высшая школа. 2003. – С. 194: Лисовский Н.М. Святые Кирилл и Мефодий. – СПб.: Билиограф, 1885; Кацпржак Е.Н. История письменности и книги. – М.: Искусство, 1955. – С. 468; Бердяев Н.А. Философия творчества, культуры и искусства. – М.: Искусство. Соч в 2-х томах. Том I. 1999. – С. 458; Ильин И.А. Основы христианской культуры. – М., Русская книга, Соч. в 10 томах. Том I. 2002. – С. 340; Соловьев В.С. Сочинения. Т.2. – М., 1989. – С. 422; Гобозов И.А. Социальная философия. – М.: Издатель Савин С.А., 2003. – С. 340; Барулин В.С. Социальная философия. – М.: Фаир - Пресс, 2000. – С. 348; Степин В.С. Человеческое познание и культура. – СПб.: СПбГУП, 2013. – С. 240; Плотников С.Н. Читательская культура в России // Homo Legens. Памяти Сергея Николаевича Плотникова (1929–1995 г.). – М.: Дом интеллектуальной книги, 2011. – С. 280; Куфаев М.Н. Проблемы философии книги // Куфаев М.Н. Избранное. Труды по книговедению и библиографоведению. – М.: Книга, 1981. – С. 356; Рубакин Н.А. Психология читателя и книги. Краткое введение в библиологическую психологию – М.: Лира., 1929. – С. 45; Рубакин, Н.А. Этюды о русской читающей публике. – СПб., 1895. – С. 246; Немировский Е.Л. Большая книга о книге. – М.: Время, 2010. – С.1088; Кляшторный С.Г. Согдийская надпись из Бугута // Вып.10. Средняя и Центральная Азия. – М.: Наука, 1971. –.С. 45.

A.Xolidov, M.Xayrullayev va N.Rajapovalar yoshlar ma’naviy-axloqiy tarbiyasini yuksaltirishda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning o‘rni va ahamiyati, omillari va mexanizmlariga oid tadqiqotlar olib borganlar[4].

Yuqorida qayd etilgan adabiyotlar tahlili va ularda tadqiq etilgan muammolar yoshlar ijtimoiy-axloqiy qiyofasini shakllantirishda kitobxonlik madaniyatining o‘rni tizimli o‘rganilmaganligini ko‘rsatmoqda. Mazkur dissertatsiyada kitobxonlik muhitini rivojlantirishning institutsional va hududiy imkoniyatlarini asoslashga yoshlar ijtimoiy-axloqiy qiyofasini shakllantirish muammosini ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tadqiq etishga va bunda kitobxonlik madaniyatidan foydalanishning ijtimoiy mexanizmlarini takomillashtirishga e’tibor qaratilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Navoiy davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq II band “Barkamol inson shaxsini shakllantirish va uning ijtimoiy-pedagogik mohiyati” (2022-2026 yy.) tadqiqot yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi yoshlar ijtimoiy-ma’naviy qiyofasini shakllantirishda kitobxonlik madaniyatining ta’sirini ochib berishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

kitobxonlik madaniyatining yoshlar dunyoqarashi rivojlanishiga ta’sirini ijtimoiy-falsafiy tahlil qilish;

yoshlarda mutolaaga qiziqishning susayishiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash hamda an’anaviy va raqamli mutolaa shakllarini uyg‘unlashtirish zaruratini asoslash;

yoshlar orasida kitob o‘qish madaniyatining pasayishining asosiy omillari va

O‘zbekistonda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishning aksiologik va gnoseologik omillarini asoslash;

kitobxonlik muhiti hamda jamiyat intellektual salohiyatini yuksaltirishda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari va ijtimoiy institutlar hamkorligining o‘rnini aniqlash;

kitobxonlik madaniyati asosida yoshlarni ijtimoiy-ma’naviy hamda axloqiy shakllantirish imkoniyatlarini ochib berishdan iborat.

---

[4] Ртвеладзе Э.Л. Цивилизации, государства, культуры Центральной Азии. – Т.: Патент-Пресс, 2008. – С. 284; Ахунджанов. Э.А. Письменная и книжная культура Узбекистана. Древность и средние века. – Т.: Мерос, 2015. – С. 483; Сафарова Н.О. Museums as a factor of lifelong education in the formation of historical consciousness. / Theoretical & Applied Science, 09 (65), – P. 240; Саломова Х.Ю. Jalaluddin Rumi's Human Essence and His Comments on the Types. Asian Journal of Basic Science & Research, Issue 2, P. 46-59, 2023; Умаров А.О. Ижтимоий-маданий тараққиётни таъминлаш ва комил инсон шахсини шакллантиришда мутолаанинг роли. // Соц.ф.д... диссертация автореферати. – Т., 2005. – С. 256; Лившиц В.А. О происхождении древнетюркской рунической письменности. – Т., 1962. – С. 67; Абдулазизов А. Мутолаа маданиятини шакллантиришнинг социологик таҳлили. – Т.: Навруз, 2016. – С. 165; Ганиева Б.И. Ахборотлашган жамият ўқитиш маданиятини шакллантириш масалалари. – Т.: E-LINE PRESS, 2017. – С. 154; Исхаков М.М. Центральная Азия в системе мировой письменной культуры (древность и раннее средневековье). – Т.: УМЭД, 2008. – С. 453; Хабибуллаев Н.Н. История письменности и рукописной книги народов Узбекистана.(IX-начало XX в). – Т.: Янги авлод, 2008. – С. 142; Халидов А. Б. Книжная культура. Культура народов Востока. – М.: Книга, 1982. – С. 310; Хайруллаев М.М. Фараби. Эпоха и учение. – Т.: Узбекистан, 1978. – С. 264; Раджапова Н.Б. Гендерные особенности в речи //Традиции и инновации в исследовании и преподавании языков. – ТГУ, 2023. – С. 213-217.

Tadqiqot obyekti sifatida kitobxonlik madaniyati kontekstida yoshlarning ijtimoiy-ma’naviy qiyofasini shakllantirish jarayoni tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini kitobxonlik madaniyatining yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash vositasi sifatidagi ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari, ta’sir mexanizmlari hamda ularni yuzaga chiqaruvchi omillari tshlik etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tizimli-funksional tahlil, kontent-analiz, retrospektiv, dialektik, sinergetik, komparativistika, ijtimoiy so‘rovnoma, anketa, kontent tahlili kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kitobxonlik madaniyatining yoshlar ma’naviy-axloqiy kamoloti va ijtimoiy identikligi shakllanishidagi badiiy tafakkur, axloqiy refleksiya va madaniy mansublikni anglash orqali namoyon bo‘ladigan determinatsion xususiyatlari hamda shaxsning aksiologik yo‘nalganligi, ma’naviy-axloqiy fazilatlari va ijtimoiy o‘zligini anglash jarayonlarini milliy va umuminsoniy qadriyatlarning shaxsiy e’tiqodga aylanishi asosida integratsiyalashtiruvchi omil sifatidagi ahamiyati asoslangan;

yoshlarning individual ehtiyojlari, mutolaa maqsadi va kognitiv xususiyatlariga muvofiq an’anaviy hamda raqamli mutolaa shakllarini dinamik tanlash, multimodal o‘zlashtirish, refleksiv qayta ishlash, ijtimoiy-kommunikativ muhokama va aksiologik interiorizatsiyani qamrab oluvchi adaptiv-integrativ gibrid kitobxonlik modelining o‘zlashtirilgan mazmunni shaxsiy qadriyat va ongli hayotiy pozitsiyaga aylantirish orqali yoshlarda barqaror mutolaa ehtiyoji hamda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish imkoniyatlari aniqlashtirilgan;

O‘zbekistonda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosatining ta’lim, madaniyat, axborot-kommunikatsiya va fuqarolik jamiyati institutlarini funksional integratsiyalashga asoslangan idoralararo hamkorlik, ijtimoiy sheriklik va mutolaa resurslaridan teng foydalanishni ta’minlovchi institutsional mexanizmlari hamda uning mutolaani kundalik ijtimoiy amaliyotga, bilimni esa ijodiy tafakkur va ijtimoiy tashabbus manbaiga aylantirish orqali kitobxonlik muhitini shakllantirish va jamiyat intellektual salohiyatini oshirishdagi strategik ahamiyati ochib berilgan;

kitobxonlik madaniyatining yoshlar ijtimoiy-ma’naviy va axloqiy yo‘nalganligini qadriyatlarni qadrlash, ma’naviy tajribani o‘zlashtirish va mustaqil axloqiy tanlovni qaror toptirish orqali determinatsiyalash xususiyatlari hamda shaxs ongining shakllanishi, axloqiy refleksiya va ijtimoiy mas’uliyatning rivojlanishi bilan mutolaa mazmunining shaxsiy e’tiqod, ijtimoiy pozitsiya va xulq-atvor me’yorlariga aylanishi o‘rtasidagi integrativ birlik asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kitobxonlik madaniyatining yoshlar ma’naviy ongi va ijtimoiy pozitsiyasiga ta’siri aniqlashtirilib, uning imkoniyatlaridan ta’limiy faoliyatda matnni tanqidiy tahlil qilish, mustaqil fikrlash va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda ma’naviy-ma’rifiy faoliyatda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘zlashtirish, ijtimoiy mas’uliyat va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish maqsadida foydalanish yo‘nalishlari asoslab berilgan;

yoshlar orasida mutolaa shakllari va kitobxonlikka munosabatni tahlil qilish asosida kitobxonlik darajasiga berilgan subyektiv baho bilan adabiy bilimlar hamda o‘qilgan asarlar mazmunini anglashning amaldagi darajasi o‘rtasidagi tafovutlarni bartaraf etish zarurati aniqlashtirilgan;

zamonaviy yoshlarning kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan individual mutolaa rejalarini tuzish, ta’lim muassasalari va kutubxonalar hamkorligida kitobxonlik klublarini tashkil etish, bosma, elektron va audioadabiyotlarning mavzuli tavsiya ro‘yxatlarini shakllantirish hamda o‘qilgan asarni tahliliy savollar asosida muhokama qilish, asosiy g‘oyalar va shaxsiy xulosalarni mutolaa kundaligida qayd etish, asardagi axloqiy tanlovlarni hayotiy vaziyatlar bilan qiyoslashga doir tavsiyalar individual mutolaa ehtiyojini shakllantirishi, resurslarni uyg‘unlashtirishi, ijtimoiy muhokama va qadriyatlarni o‘zlashtirishi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalar, faktlar, statistik ma’lumotlarga murojaat qilingan holda olinganligi, tushuncha definitsiyasi ilmiy tadqiqot metodologiyasi va mantiq talablariga amal qilgan holda ishlab chiqilganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o‘tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo‘yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo‘lib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kitobxonlik madaniyatining yoshlarning ijtimoiy-ma’naviy qiyofasi, ma’naviy-axloqiy yo‘nalishi va ijtimoiy identitetini shakllantirishdagi o‘rni ijtimoiy-falsafiy, aksiologik va gnoseologik yondashuvlar asosida konseptual jihatdan asoslashda, kitobxonlik madaniyatining umumiy madaniyat tizimidagi maqomini aniqlashtirishda, raqamli axborot muhitining kitobxonlikka ta’sirini, an’anaviy va raqamli mutolaa shakllarini funksional integratsiyalashga asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqishda, shuningdek, kitobxonlik madaniyatining aksiologik va gnoseologik omillari hamda uning jamiyat intellektual salohiyatini rivojlantirishdagi imkoniyatlarini nazariy jihatdan asoslashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati yoshlar o‘rtasida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan ta’limiy va ma’naviy-ma’rifiy faoliyatni takomillashtirishda, ta’lim muassasalari, kutubxonalar va yoshlar tashkilotlarida mutolaa dasturlarini ishlab chiqish, kitobxonlik motivatsiyasini oshirishda, yoshlar o‘rtasida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan ta’limiy, kutubxona-axborot va ma’naviy-ma’rifiy faoliyatni takomillashtirishda, shuningdek, oilaviy hamda hududiy kitobxonlikni rivojlantirishda, maxsus kurslar, fakultativ dasturlar va o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarni yaratishda, zamonaviy axborot xizmatlari hamda interfaol kitobxonlik maydonchalarini modellashtirishda, intellektual tanlovlar, adabiy festivallar, chekka hududlar va mahallalarda ko‘chma kutubxonalar hamda bibliobuslar faoliyatini tizimli yo‘lga qo‘yishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yoshlarning ijtimoiy-ma’naviy qiyofasini shakllantirishda kitobxonlik madaniyatining ahamiyatini tadqiq etish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

kitobxonlik madaniyatining yoshlar ma’naviy-axloqiy kamoloti va ijtimoiy identikligi shakllanishidagi badiiy tafakkur, axloqiy refleksiya va madaniy mansublikni anglash orqali namoyon bo‘ladigan determinatsion xususiyatlari hamda shaxsning aksiologik yo‘nalganligi, ma’naviy-axloqiy fazilatlari va ijtimoiy o‘zligini anglash jarayonlarini milliy va umuminsoniy qadriyatlarning shaxsiy e’tiqodga aylanishi asosida integratsiyalashtiruvchi omil sifatidagi ahamiyatiga doir ilmiy-nazariy xulosalar hamda taklif-tavsiyalardan Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti Qoraqalpog‘iston filialida bajarilgan A1-XT-0-92997-raqam “Yoshlarda umuminsoniy, milliy va tarixiy qadriyatlar uyg‘unligi asosida ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning muammolari” mavzusidagi amaliy loyiha vazifalarini amalga oshirishda foydalanilgan (Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti Qoraqalpog‘iston filialining 2025-yil 23-iyuldagi 314-son ma’lumotnomasi). Natijada, yoshlarning ijtimoiy-ma’naviy qiyofasini yuksaltirishga qaratilgan ishlarni kitobxonlik madaniyatining tarbiyaviy imkoniyatlariga oid tahliliy xulosalar bilan boyitishga xizmat qilgan;

yoshlarning individual ehtiyojlari, mutolaa maqsadi va kognitiv xususiyatlariga muvofiq an’anaviy hamda raqamli mutolaa shakllarini dinamik tanlash, multimodal o‘zlashtirish, refleksiv qayta ishlash, ijtimoiy-kommunikativ muhokama va aksiologik interiorizatsiyani qamrab oluvchi adaptiv-integrativ gibrid kitobxonlik modelining o‘zlashtirilgan mazmunni shaxsiy qadriyat va ongli hayotiy pozitsiyaga aylantirish orqali yoshlarda barqaror mutolaa ehtiyoji hamda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish imkoniyatlariga oid xulosalar hamda taklif-tavsiyalardan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining 2023-yilgi chora-tadbirlar dasturining VII yo‘nalishi 37-bandida belgilangan “Yangi O‘zbekiston yoshlarining ma’naviy portreti”ni yaratish loyihasi bo‘yicha targ‘ibot ishlarini tashkil etish va o‘tkazishda foydalanilgan (Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining 2023-yil 13-iyuldagi 02/08/29-son ma’lumotnomasi). Natijada, yoshlarning ijtimoiy-ma’naviy va axloqiy qiyofasini shakllantirish, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar uchun targ‘ibotchilarning uslubiy qo‘llanmalarini ishlab chiqishga xizmat qilgan;

O‘zbekistonda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosatining ta’lim, madaniyat, axborot-kommunikatsiya va fuqarolik jamiyati institutlarini funksional integratsiyalashga asoslangan idoralararo hamkorlik, ijtimoiy sheriklik va mutolaa resurslaridan teng foydalanishni ta’minlovchi institutsional mexanizmlari hamda uning mutolaani kundalik ijtimoiy amaliyotga, bilimni esa ijodiy tafakkur va ijtimoiy tashabbus manbaiga aylantirish orqali kitobxonlik muhitini shakllantirish va jamiyat intellektual salohiyatini oshirishdagi strategik ahamiyatiga doir ilmiy xulosa va tavsiyalardan O‘zbekiston Yoshlar ittifoqining normativ hujjatlarini ilmiy-nazariy jihatdan takomillashtirishda foydalanilgan (O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy kengashining 2023-yil 13-iyuldagi 04-13/596-son ma’lumotnomasi). Natijada, yosh avlodda ajdodlar adabiy merosiga hurmat, vatanparvarlik va kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga

qaratilgan faoliyatning mazmunini boyitish, kitob mutolaasini zamonaviy bilimlarni egallash va yoshlarning intellektual-ma’naviy salohiyatini rivojlantirish bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qilgan;

kitobxonlik madaniyatining yoshlar ijtimoiy-ma’naviy va axloqiy yo‘nalganligini qadriyatlarni qadrlash, ma’naviy tajribani o‘zlashtirish va mustaqil axloqiy tanlovni qaror toptirish orqali determinatsiyalash xususiyatlari hamda shaxs ongining shakllanishi, axloqiy refleksiya va ijtimoiy mas’uliyatning rivojlanishi bilan mutolaa mazmunining shaxsiy e’tiqod, ijtimoiy pozitsiya va xulq-atvor me’yorlariga aylanishi o‘rtasidagi integrativ birlik bo‘yicha ilmiy-nazariy tahlillar, xulosa va taklif-tavsiyalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston 24” ijodiy birlashmasi tomonidan taqdim etilgan dalolatnomada qayd etilgan “Adabiy jarayon”, “Millat va ma’naviyat”, “O‘zbekiston yoshlari” dasturlarining 2025-yil fevral–avgust oylaridagi ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston 24” ijodiy birlashmasining 2025-yil 24-sentabrdagi 05-09-1496-son ma’lumotnomasi). Natijada, mazkur dasturlarning ilmiy-ma’rifiy mazmunini boyitish, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish va yuksaltirishga oid ma’lumotlarni keng jamoatchilikka yetkazish hamda yoshlar o‘rtasida kitobxonlik targ‘ibotining ta’sirchanligini oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta jumladan, 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 20 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarida 7 ta ilmiy maqola (4 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 140 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti, tadqiqotda qo‘llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e’lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Kitobxonlik madaniyatining falsafiy asoslari va fundamental ahamiyati”** deb nomlangan birinchi bobida kitobxonlik madaniyatini nazariy asoslar va o‘qish madaniyati tushunchalari, kitobxonlik madaniyati

kategoriyasining ijtimoiy-falsafiy talqini, uning mazmuni, mohiyati va koʻrinishlari ochib berilgan.

Tadqiqotda Yangi Oʻzbekistondagi ijtimoiy-madaniy oʻzgarishlarga moslashtirilgan va kitobxonlik madaniyatini yanada rivojlantirishga qaratilgan nazariy asoslangan konseptual yondashuv mexanizmi va tavsiyalar keltirilgan. “Mutolaa madaniyati” kategoriyasi ijtimoiy va tabiiy fanlarning turli sohalarida toʻplangan barcha bilimlarni yaxlit tadqiq etish, tizimlashtirish va birlashtirishni talab qilishini koʻrsatadi. N.Safarova va N.Shamsutdinova koʻplab fanlarning oʻzaro yaqin ta’siri va oʻzaro bogʻliqligiga asoslanib, boshqa fanlar uchun mos fanlararo tadqiqot yondashuvini ajratish gʻoyasini taklif qiladilar[5]. Bunday yondashuv “mutolaa madaniyati” hodisasini turli ijtimoiy va tabiiy fanlar nuqtai nazaridan har tomonlama va fundamental oʻrganishni ta’minlaydi.

Tadqiqotchi fikricha, kitoblar oʻz formatini oʻzgartira boshladi – ular asta-sekin onlayn oʻqishga oʻtishni boshladilar. Har soatda minglab odamlar elektron kitoblarni oʻqiydi va yuklab oladi, World Wide Webdagi kitob saytlariga tashrif buyuradi va audiokitoblarni tinglaydi. Kitobxonlik madaniyati nafaqat individual ongni, balki bilimlarning jamoaviy tuzilmalarini, ijtimoiy xotirani va ijtimoiy oʻzaro ta’sir modellarini ham shakllantirishi ta’kidlanadi. Intellektual va ma’naviy merosni keyingi avlodga uzatish, shuningdek, tarixiy va evolyutsion madaniy davomiylikni saqlash ta’lim muassasalarida, kutubxona tizimlarida va kitob tarqatishda ishlaydigan kitobxonlik madaniyati orqali amalga oshiriladi. Bu jarayon sivilizatsiya taraqqiyoti kontekstida avlodlarning kognitiv va aksiologik integratsiyasini ta’minlab, madaniy oʻtishda vositachilik qiladi.

Kitobxonlik madaniyati shaxsning intellektual va ma’naviy rivojlanishini ta’minlovchi muhim ijtimoiy-madaniy hodisalardan biri boʻlib, uning mazmuni faqatgina kitob oʻqish jarayoni bilan chegaralanmaydi. Mutolaa jarayonida shaxs tomonidan bilim, ijtimoiy tajriba, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy xulq-atvor me’yorlarining anglanishi hamda oʻzlashtirilishi kitobxonlik madaniyatining shaxs kamolotiga ta’sirini belgilovchi muhim omillar sifatida namoyon boʻladi. Shu nuqtayi nazardan, kitobxonlik madaniyatini yoshlarning ijtimoiy-ma’naviy qiyofasini shakllantirish bilan bogʻliq murakkab ijtimoiy-falsafiy fenomen sifatida tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotda kitobxonlik madaniyatining ijtimoiy-falsafiy mazmuni uning shaxs va jamiyat oʻrtasidagi munosabatlarni vositalovchi, ijtimoiy tajriba va qadriyatlarni avloddan avlodga yetkazuvchi hamda shaxsning oʻzligini anglash jarayoniga ta’sir koʻrsatuvchi fenomen sifatidagi xususiyatlari ochib berilgan. Kitobxonlik madaniyati umumiy madaniyat tizimining tarkibiy qismi sifatida qaralib, uning intellektual, aksiologik, kommunikativ, refleksiv va xulqiy komponentlari oʻzaro bogʻliq holda namoyon boʻlishi aniqlangan. Bunday yondashuv kitobxonlikni oddiy axborot olish vositasidan shaxsning ma’naviy dunyosi va ijtimoiy pozitsiyasini shakllantiruvchi faol jarayonga aylantiruvchi omillarni aniqlash imkonini beradi.

[5] Nigora Safarova, Nigina Shamsutdinova, The functional interrelatedness of education, upbringing, and culture: a systematic approach// The World Of Dede Korkut International Scientific Journal.- Azerbaijan, 2025 / Volume: 7 Issue:2/12-17 // https://dqd.az/wp-content/uploads/2025/12/Dede-Qorqud-dunyasi.pdf

Tadqiqotda kitobxonlik madaniyatining yoshlarning ijtimoiy identikligini shakllantirishdagi determinatsion xususiyatlari ham asoslangan. Ijtimoiy identiklik shaxsning o‘zini muayyan ijtimoiy, madaniy, milliy va ma’naviy qadriyatlar tizimiga mansub deb anglashi bilan bog‘liq bo‘lib, mutolaa jarayonida tarixiy xotira, milliy o‘zlik, fuqarolik mas’uliyati, jamiyatga daxldorlik va umuminsoniy qadriyatlar haqidagi tasavvurlar boyib boradi. Shu jihatdan kitobxonlik yoshlarning “men” va “jamiyat” o‘rtasidagi munosabatlarni anglashiga, o‘z ijtimoiy o‘rnini belgilashiga va muayyan qadriyatlar asosida ijtimoiy pozitsiya shakllantirishiga xizmat qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. (Qarang: 1-rasm)



1-rasm. Kitobxonlik madaniyatining yoshlar ma’naviy-axloqiy kamoloti va ijtimoiy identitetini shakllantirishdagi ta’sir mexanizmi

Dissertatasiyada ma’lumotlarning tizimlashtirilishi natijasida kitobxonlik madaniyati bilan yoshlarning ma’naviy-axloqiy va ijtimoiy rivojlanishi o‘rtasida muayyan bog‘liqlik mavjudligi aniqlangan. Mutolaa chastotasi, kitob tanlash motivlari, o‘qilayotgan adabiyot mazmuniga munosabat, kitobdan olingan g‘oyalarni hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lash va mutolaa jarayonidagi refleksiv faoliyat kabi ko‘rsatkichlar yoshlarning qadriyatli yo‘nalganligi, mustaqil fikrlashi va ijtimoiy mas’uliyatini shakllantirish bilan uzviy aloqador ekanligi aniqlangan. Shu asosda kitobxonlik madaniyatining yoshlar ma’naviy-axloqiy kamoloti va ijtimoiy identitetini shakllantirishdagi ta’sirini “mutolaa – anglash – aksiologik baholash – refleksiya – qadriyatlarni o‘zlashtirish – ijtimoiy pozitsiya” izchilligida ifodalangan. Mazkur jarayonda kitobxonlik shaxsning tayyor bilimlarni o‘zlashtirishigagina emas, balki ularni mustaqil ravishda qayta anglash, baholash va shaxsiy e’tiqod hamda xulq-atvor me’yorlariga aylantirishiga imkon yaratadi.

Tadqiqotchi fikricha, kitobxonlik madaniyatining ijtimoiy-falsafiy kategoriya sifatidagi mazmuni shaxsning aksiologik yo‘nalganligi, ma’naviy-axloqiy fazilatlari va ijtimoiy o‘zligini anglash jarayonlarini o‘zaro uyg‘unlashtiruvchi integrativ omil dir. Mazkur yondashuv kitobxonlik madaniyatining yoshlarning ijtimoiy-ma’naviy qiyofasini shakllantirishdagi rolini faqat ma’rifiy faoliyat doirasida emas, balki shaxsning qadriyatli dunyoqarashi, axloqiy pozitsiyasi va ijtimoiy identifikatsiyasining shakllanish jarayonlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Dissertant mulohazalariga koʻra, kitobxonlik madaniyatining nafaqat ontologik va gnoseologik holati, balki uning ijtimoiy makonni insonparvarlashtirish, inson mavjudligining semantik yaxlitligini mustahkamlash, oqilona va tanqidiy fikrlovchi subyektlar jamiyatini barpo etish imkoniyatlari muhim hisoblanadi. Kitobxonlik madaniyatiga nafaqat bilim toʻplash vositasi, balki insonning dunyoqarashini shakllantirish, hayotni anglash, oʻzini va jamiyatni anglash vositasi sifatida ham qarash lozim. Bu hodisa jamiyatning madaniy tizimi, ijtimoiy normalar, ma'naviy qadriyatlar bilan uzviy bogʻlangan. Kitob oʻqish orqali inson oʻzining tarixiy va madaniy ildizlarini oʻzlashtiradi, ular orqali umuminsoniy qadriyatlarni idrok etadi va shaxsiyatini shakllantiradi. Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan qaraganda, kitobxonlik madaniyati shaxs va madaniyat oʻrtasidagi munosabatni, uning ijtimoiy muhitdagi oʻrnini anglash shaklidir.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **"Kitobxonlik madaniyatining genezisi va tarixiy evolyutsiyasi hamda uning zamonaviy jamiyatdagi oʻrni"** deb nomlangan boʻlib, mazkur bobda Markaziy Osiyo va Yevropada kitobxonlik madaniyati paydo boʻlishi va rivojlanishining tarixiy bosqichlari tahlil qilinib, zamonaviy hayotda oʻqish madaniyatining roli va oʻrni hamda yoshlarning ijtimoiy ma'naviy qiyofasini shakllantirishdagi shart-sharoitlari ilmiy-falsafiy asosda ochib berilgan.


Tadqiqotda Osiyo, Yevropa va boshqa mintaqalarda kitobxonlik madaniyati rivojlanishining omillari, mexanizmlari va qonuniyatlari haqida ma'lumot va axborotlarni, birinchidan, uning tarkibiy qismi – yozma sohani oʻrganish, ikkinchidan, oʻsha davrning kitobxonlik madaniyati bilan u yoki bu tarzda bogʻliq boʻlgan turdosh fanlar manbalari – antik tarix, dinshunoslik, muzeyshunoslik, antropologiya, madaniyatshunoslik, etnologiya va boshqa fanlar ma'lumotlaridan foydalanilgan.

Mutolaa madaniyati tarixiy va evolyutsion rivojlanish va takomillashuv bosqichlarini bosib oʻtib, hozirgi davrda madaniy tizimdan chiqib, oʻziga xos maqsad, vazifalar, tamoyil va uslublarga ega boʻlgan avtonom va mustaqil fanga aylandi. Yangi elektron kitobning paydo boʻlishi uning uchinchi va hozirgacha yakuniy oʻzgarishini anglatadi. Zamonaviy hayotda juda muhim boʻlgan "axborot madaniyati"ni oʻqish jarayonisiz – olingan bilimlarni tushunish, oʻzlashtirish va undan foydalanish qobiliyatisiz rivojlanishi mumkin emas. Demak, kitob va kitobxonlik madaniyati evolyutsiyasi davom etmoqda.

Dissertant fikricha, zamonaviy davr oʻzgaruvchan mediamuhit va madaniy amaliyotlarni raqamlashtirish bilan tavsiflanadi. Matnlarni idrok etish formatlari oʻzgarganiga qaramay, yoshlarni ijtimoiylashtirish va ularning ma'naviyatini shakllantirishda oʻqishning ahamiyati dolzarbligicha qolmoqda. Kitob mutolaasi tanqidiy fikrlash, hamdardlik va fuqarolik mas'uliyatini rivojlantirishga koʻmaklashuvchi vosita boʻlib xizmat qilishda davom etmoqda.

Tadqiqotda raqamli axborot-kommunikativ muhitning yoshlar kitobxonlik amaliyotiga ta'sirini hisobga olgan holda adaptiv-integrativ gibrid kitobxonlik modeli ishlab chiqildi. Mazkur modelning konseptual mohiyati an'anaviy va raqamli mutolaa shakllarini bir-biriga muqobil sifatida emas, balki yoshlarning individual ehtiyojlari, mutolaa maqsadi, kognitiv xususiyatlari va axborot iste'moli

sharoitlariga muvofiq ravishda o‘zaro to‘ldiruvchi hamda funksional jihatdan integratsiyalashuvchi tizim sifatida tashkil etishdan iborat. (Qarang: 2-rasm)



2-rasm. Adaptiv-integrativ gibrid kitobxonlik modeli

Modelning birinchi diagnostik-adaptiv moduli yoshlarning kitobxonlikka bo‘lgan qiziqishi, mutolaa motivatsiyasi, o‘qish odatlari, individual ehtiyojlari, raqamli kompetensiyasi, vaqt resurslari va kognitiv xususiyatlarini aniqlashga yo‘naltiriladi. Mazkur bosqichda yoshning mavjud kitobxonlik holati diagnostika qilinib, uning individual xususiyatlariga mos mutolaa trayektoriyasi belgilanadi. Shu orqali barcha yoshlarni yagona o‘qish shakliga yo‘naltirishdan voz kechib, individual-adaptiv yondashuvga asoslangan kitobxonlik amaliyoti shakllantiriladi.

Modelning ikkinchi multimodal mutolaa moduli bosma, elektron va audio formatlarning funksional imkoniyatlarini uyg‘unlashtirishni nazarda tutadi. Bunda bosma kitob chuqur va izchil mutolaa, elektron format tezkor va qulay foydalanish, audiokitob esa vaqt va makon cheklovlarini kamaytirish vositasi sifatida qo‘llanadi. Raqamli manbalar esa matn mazmunini kengaytirish, qo‘shimcha axborot izlash, giperhavolalar va multimedia resurslaridan foydalanish imkonini beradi. Shu tariqa “bir mazmun – ko‘p modalli o‘zlashtirish” tamoyili asosida mutolaaning texnologik va mazmuniy imkoniyatlari kengaytiriladi.

Modelning uchinchi kognitiv-refleksiv transformatsiya moduli o‘qilgan axborotni shunchaki qabul qilishdan uning chuqur anglanishi va shaxsiy bilimga aylantirilishini ta’minlaydi. Mazkur jarayon axborotni tushunish, tizimlashtirish, taqqoslash, tanqidiy baholash, mustaqil xulosa chiqarish va refleksiv mushohada yuritish bosqichlarini qamrab oladi. Shu jihatdan modelning innovatsion xususiyati raqamli muhitga xos tezkor va fragmentar axborot iste’molini tizimli bilim, mustaqil

fikrlash va refleksiv anglashga transformatsiya qilish mexanizmini nazarda tutishida namoyon bo‘ladi.

Modelning to‘rtinchi ijtimoiy-kommunikativ integratsiya moduli individual mutolaani ijtimoiy muloqot va intellektual almashinuv bilan bog‘laydi. Kitobxonlik klublari, munozara va seminarlar, onlayn muhokama platformalari, esse, taqriz, podkast, videoblog va boshqa kommunikativ shakllar orqali o‘qilgan asar mazmuni turli nuqtayi nazarlar asosida talqin qilinadi. Natijada yosh nafaqat tayyor bilimni o‘zlashtiruvchi, balki bilimni muhokama qilish, baholash va ijtimoiy-kommunikativ muhitda qayta ishlab chiqish jarayonining faol subyektiga aylanadi.

Modelning beshinchi natijani mustahkamlash moduli mutolaa jarayonida o‘zlashtirilgan bilim va mazmunning shaxsiy qadriyatlar tizimiga integratsiyalashuvini ta’minlaydi. Bunda o‘qilgan asardagi g‘oyalarni anglash, ularni mavjud qadriyatlar bilan qiyoslash, ma’naviy-axloqiy jihatdan baholash, shaxsiy e’tiqod bilan bog‘lash va amaliy faoliyatda qo‘llash jarayonlari amalga oshiriladi. Shu asosda mutolaa natijasi oddiy axborot yoki bilim bilan chegaralanmay, qadriyat, e’tiqod, ijtimoiy pozitsiya va amaliy xulq-atvorga transformatsiyalanadi.

Modelning muhim jihatlaridan biri uning qayta aloqa va takomillashtirish mexanizmiga asoslanganligidir. Mutolaa jarayoni yakuniy va bir martalik faoliyat sifatida emas, balki diagnostika, mutolaa, refleksiya, kommunikatsiya va o‘zlashtirish natijalariga ko‘ra qayta baholanib boradigan dinamik jarayon sifatida qaraladi. Olingan natijalar asosida yoshning yangi ehtiyojlari, qiziqishlari va mutolaa imkoniyatlari aniqlanib, uning individual kitobxonlik trayektoriyasi takomillashtiriladi. Shu sababli model chiziqli emas, siklik va rivojlanuvchi xarakterga ega.

Mazkur modelning metodologik asosini adaptivlik, multimodallik, funksional differensiallashuv, refleksivlik, kommunikativlik va aksiologik yo‘naltirilganlik tamoyillari tashkil etadi. Adaptivlik yoshning individual ehtiyojlariga moslashishni, multimodallik turli o‘qish formatlarining uyg‘unligini, funksional differensiallashuv har bir formatdan uning maqbul vazifasiga muvofiq foydalanishni, refleksivlik o‘qilgan axborotni chuqur anglashni, kommunikativlik individual mutolaani ijtimoiy muloqot bilan bog‘lashni, aksiologik yo‘naltirilganlik esa mutolaa natijasini qadriyat va amaliy xulq-atvorga aylantirishni ifodalaydi.

Dissertant mulohazalariga ko‘ra, adaptiv-integrativ gibrid kitobxonlik modelining asosiy innovatsion jihati an’anaviy va raqamli mutolaa shakllarini mexanik birlashtirishda emas, balki ularni yoshning individual ehtiyoji va mutolaa maqsadiga muvofiq adaptiv tanlash, multimodal o‘zlashtirish, kognitiv-refleksiv qayta ishlash, ijtimoiy-kommunikativ muhokama hamda aksiologik interiorizatsiya jarayonlari bilan yagona tizimga birlashtirishda namoyon bo‘ladi. Mazkur model orqali raqamli muhitning tezkor axborot olish imkoniyatlari an’anaviy mutolaaning chuqur o‘zlashtirish va refleksiv tafakkur imkoniyatlari bilan uyg‘unlashtirilib, yoshlarning mutolaa ehtiyoji va zamonaviy kitobxonlik madaniyatini shakllantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekistonda kitob mutolaasi madaniyatini rivojlantirish omillari”** deb nomlangan uchinchi bobda O‘zbekistonda kitob

mutolaasi madaniyatining rivojlanishi tahlil qilib chiqilgan. Mamlakatimizning dunyoviy, iqtisodiy barqaror va farovon davlatga aylanishi aholining ijtimoiy ongi, madaniyati va ma’naviyati bilan uzviy bog‘liqligi. Kitobxonlik madaniyati esa bu jarayonda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi tasdiqlangan.

Tadqiqotchi fikricha, mutolaa madaniyati subyektiv va obyektiv kategoriya bo‘lib, shaxs va jamiyat o‘rtasidagi munosabatni ifodalaydi. Individ haqida gapirganda, ularning butun kognitiv va hissiy tajribasi nazarda tutiladi, jamiyat deganda esa yoshlarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish uchun to‘g‘ri jamiyat yaratib berishi kerak bo‘lgan barcha shart-sharoitlar nazarda tutiladi. Kitobxonlik madaniyati ham falsafiy kategoriya, ham umumiy madaniyatning quyi tizimi sifatida talqin etilgan. U ko‘p qirrali nuqtai nazardan ko‘rib chiqilgan: jamoat ongini shakllantirish vositasi sifatida, yoshlarni ijtimoiylashtirish mexanizmi sifatida, ma’naviy qadriyatlarni rivojlantirish vositasi sifatida, voqelikni tushunish va idrok etish usuli sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu turkum universal va konseptual ahamiyatga ega bo‘lib, bu uning shaxs va jamiyatning ma’naviy va ijtimoiy rivojlanishi jarayonida alohida rolini belgilaydi. Shuning uchun ham ilmiy jamoatchilik oldida uning imkoniyatlarini har tomonlama va chuqur anglash vazifasi turibdi.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichi yoshlarni jamiyatning strategik resursi sifatida har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy, madaniy, ta’lim sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar bilan tavsiflanadi. Shu nuqtai nazardan, kitobxonlik madaniyati nafaqat shaxsiy rivojlanish shakli, balki o‘sib kelayotgan yosh avlodning ijtimoiy-ma’naviy o‘zligini shakllantirishning samarali vositasi bo‘lib xizmat qilayotgani ayniqsa dolzarbdir.

